TAXT, SIYOSAT VA KUCH MUHAMMAD RAHIMXON I TARIXI

Shermamatova Sug̈dıyona Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali
“Tarix” yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining muhim hukmdorlaridan biri bo‘lgan Muhammad Rahimxon I ning ichki va tashqi siyosati, shuningdek uning markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo‘lidagi faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda xonning taxtga kelish jarayoni, davlat boshqaruvida olib borgan islohotlari hamda xonlik hududini kengaytirish siyosati yoritiladi. Muhammad Rahimxon I davrida Qo‘qon xonligida siyosiy barqarorlikni ta’minlash, mahalliy bek va qabilalar ustidan nazoratni kuchaytirish hamda iqtisodiy tizimni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, uning tashqi siyosatda Buxoro amirligi va boshqa qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada xonning kuchli markazlashgan boshqaruv tizimini yaratishdagi sa’y-harakatlari va uning tarixiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Qo‘qon xonligi tarixini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit So`zlar. Muhammad Rahimxon I, Qo‘qon xonligi, taxt siyosati, markazlashuv, ichki siyosat, tashqi siyosat, Buxoro amirligi, tarix, davlat boshqaruvi, islohotlar

Annotation. This article analyzes the internal and external policies of Muhammad Rahim Khan I, one of the most influential rulers of the Kokand Khanate, as well as his efforts to strengthen central authority. The research covers his rise to power, administrative reforms, and territorial expansion policies. During his reign, special attention was paid to ensuring political stability within the Kokand Khanate, strengthening control over local governors and tribes, and improving the economic system. His foreign relations, particularly with the Emirate of Bukhara and neighboring states, also played an important role in his policy. The article scientifically

examines his efforts to establish a strong centralized government and highlights his historical significance. This study contributes to a deeper understanding of the history of the Kokand Khanate.

Keywords. Muhammad Rahim Khan I, Kokand Khanate, throne politics, centralization, internal policy, foreign policy, Emirate of Bukhara, history, state administration, reforms.

Аннотация. В данной статье анализируется внутренняя и внешняя политика Мухаммад Рахим-хана I, одного из наиболее значимых правителей Кокандского ханства, а также его деятельность по укреплению центральной власти. В исследовании рассматриваются процесс его восхождения на престол, административные реформы и политика расширения территории ханства. В период его правления особое внимание уделялось обеспечению политической стабильности в Кокандском ханстве, усилению контроля над местными беками и племенами, а также развитию экономической системы. Важное место занимали его внешние отношения с Бухарским эмиратом и соседними государствами. В статье научно анализируются его усилия по созданию сильной централизованной системы управления и подчеркивается его историческое значение. Данное исследование способствует более глубокому пониманию истории Кокандского ханства.

Ключевые слова.Мухаммад Рахим-хан I, Кокандское ханство, политика престолонаследия, централизация, внутренняя политика, внешняя политика, Бухарский эмират, история, государственное управление, реформы

Muhammad Rahimxon I (to‘liq ismi Muhammad Rahimxon ibn Avaz inoq ibn Muhammad Amin inoq) (1775—1825) – o‘zbek qo‘ng‘irotlar sulolasidan Xorazm xoni (1806—1825). Faoliyati. Muhammad Rahimxon I 1775-yilda Xiva shahrida Muhammad Avaz inoq oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan yaxshi ta’lim olgan, fors va arab tillarini bilgan. 1806-yilda Buxoro amirligiga qarshi olib borilgan yurishda

akasi Eltuzarxon (1804—1806)ning fojiali vafot etishi natijasida Xiva xonligi taxtiga Muhammad Rahimxon I o‘tiradi. Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida bobosi Muhammad Amin inoq boshlagan Xiva xonligidagi xalqlarni birlashtirish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Uning hukmronligi 1806-yildan 1825-yilgacha davom etadi. Shu yili Xivada vafot etadi. Muhammad Rahimxon I o‘zi qurdirgan Pahlavon Mahmud maqbarasi katta xonaqohining to‘riga dafn etilgan. Ichki siyosati Eltuzarxon 1806-yilda vafot etadi. Xonlikdagi bu paytda Qutlug‘murod inoq lavozimida edi. U sobiq xon Abulg‘ozi III ni taxtga qaytarish maqsadida uning huzuriga ko‘chib o‘tadi. Bu vaqtda Muhammad Rahim zodagonlar va qo‘shinlarning bir qismi ko‘magida Xiva shahrini egallaydi va u yerda o‘zini xon deb e’lon qiladi. Shundan keyin Qutlug‘murod inoq harbiy harakatlarga jur’at eta olmaydi. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini birlashtirishda ijobiy natijalarga erishgan. Bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy islohotlar o‘tkazgan. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash (Devon) ta’sis etilgan[1]. Muhammad Rahimxon I davrida xonlikda ichimlik ichish, bang chekish qat’iyan taqiqlangan. Bu qoidani buzgan kishining og‘zi qulog‘igacha kesilishi to‘g‘risida farmon chiqarilgan. Shaharlarni obodonlashtirish, faqirlarni xursand qilish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan[2]. Tashqi siyosati Muhammad Rahimxon I mamlakatni kengaytirish uchun 1808—1809-yillarda turkman – chovdurlar ustiga yurish qilgan. Chovdurlar Xiva xoni yurishlaridan keyin, asl vatani bo‘lgan Mang‘ishloqga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ladilar. Yorliqabek boshchiligidagi boshqa bir qismi 1810-yilda Xiva xonligi tarkibidagi Xo‘jayli hududiga joylashishga ruxsat oladi, ularga ekin yerlari berilgan[3]. Shu yili Hasanboy elini bo‘ysundirib Qo‘ng‘irotga hujum qilgan, biroq u yerda qattiq qarshilikka uchragan. Oymirza hukmronlik qilayotgan qoraqalpoqlarning bir qismini Oq yoshq degan mavzega ko‘chirgan. Muhammad Rahimxon I Orol bo‘yi qoraqalpoqlarini bo‘ysundirish uchun bir necha marta yurish qilib, 1811-yilda To‘ramurod so‘fini yengib xonlikni mustahkamlagan. 1812—1818-yillar davomida Sirdaryo bo‘yi

qozoqlari va Marvdagi taka turkmanlar ustiga yurish qilib, ularni xonlikka qo‘shib olgan. Bu g‘alabalar Xiva xonligining mavqeini mustahkamlab, uni mustaqil qudratli davlatga aylantirgan. 1823—1824-yillarda Buxoro amirligiga tegishli Qoqishtivon, Og‘or va Poykend qal’alariga talonchilik yurishlari qilgan. Buxoro amiri Haydar bilan 1825-yilda sulh tuzgan. Muhammad Rahimxon I davrida Dashti Qipchoq, Xuroson Xiva xonligiga soliq to‘lab turgan. Xonlik hududi janubda Xuroson, shimolda Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlar, sharqda Buxoro amirligiga tutash hududlar, g‘arbda Kaspiy dengizi qirg‘oqlarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Muhammad Rahimxonning qabri Paxlavon Maxmud maqbarasida Diplomatik munosabatlar Muhammad Rahimxon I davrida Rossiya imperiyasi, Usmonlilar imperiyasi va Afg‘oniston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Afg‘oniston bilan aloqalar ayniqsa do‘stona munosabatda bo‘lgan, chunki afg‘on hukmdori Muhammadshoh (1809—1818) bir muddat Xivada surgunda yashagan. Keyinchalik u yana Afg‘oniston hukmdori bo‘ladi va xorazmlik savdogarlarga mamlakatda erkin savdo qilishiga ruxsat beradi[4]. 1819—1820-yillarda rus elchisi N. Muravyov (1794—1866) Xivada bo‘lib, u o‘z sayohati haqida kitob yozgan[5]. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Xiva xonligining aholisi uch yuz ming kishini tashkil qilgan. Asosiy aholini o‘zbeklar va turkmanlardan iborat bo‘lgan[6]. 1820 yilda A. F. Negri boshchiligidagi rus diplomatik missiyasi Xivaga tashrif buyuradi va Muhammad Rahimxon I qabulida bo‘ladi.

Madaniy va ma’rifiy sohadagi islohotlari. Muhammad Rahimxon I arab, fors tillarini bilgan. Ilm ahliga homiylik qilgan. Olim, shoir va donishmandlar bilan suhbatlar o‘tkazib turgan. Muniaa Eltuzarxon davrida boshlangan „Firdavs-ul-iqbol“ asarini davom ettirishga sharoit yaratib bergan. 1813-yil Munisga „Ravzat-us safo“ asarini tarjimasini topshirgan. Mamlakatda bir qancha kanallar qazdirib obodonlashtirishga e’tibor bergan. Arkda zarbxona tashkil qilib, oltin va kumush tangalar chiqargan. Muhammad Rahimxon I davrida ichkilik va bangilik ta’qiqlangan.

Muhammad Rahimxon Pahlavon Mahmud maqbarasini qaytadan qurdirgan. Xivada bir qancha madrasa va masjidlar qurilgan. Ular qatoriga Qutlug‘murod Inoq madrasasi, Bog‘bonli masjidi va boshqalar kiradi. Bojxona va boshqa muassasalar ishga tushgan (yana qarang Xiva xonligi). 1815-yilda Muhammad Rahimxon buyrug‘i bilan bosma naqshli kumush bilan qoplangan yangi taxt yasaladi. Hozirda u Moskvadagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Xiva xonligida soliq. daromadning asosiy manbai edi. Boshqacha qilib aytganda yer soligining miqdori xonlik byudjetini belgilab berar edi. Xiva xonligida aholidan asosan xiroj, zakot, juz’ya kabi soliqlar undirib olingan. Ularning miqdori shariatda belgilanganidek bo‘lgan. Xiva xonligidagi og‘ir soliq siyosati dehqonlar ommaviy zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan. Soliqlardan tashqari aholi muayyan majburiyatlarni bajarishi shart edi. Xususan kanallarni tozalash, ariqlarni qazish uchun ilk bahorda o‘z yeriga ega bo‘lgan har bir xonadondan bir kishi 15 kun ishlab berishi shart bo‘lgan. Xiva xonligida yerga solinadigan soliq yerning qanday toifaga mansubligiga bog‘liq bo‘lgan. Yerli mulk, ya’ni davlat yerlaridan yoki xonning shaxsiy yerlaridan foydalanish uchun yer solig‘i (daxyak) olingan. Aholining qadimdan xususiy mulki hisoblangan odatdagi shaxsiy yerlarga ham soliq solingan. Aday mulk (xalq tilida adai mulk) yerlaridan yer solig‘i emas, balki hovli puli solig‘i undirib olingan. Bu soliqning miqdori soliq to‘lovchi mulkning ko‘p-ozligiga qarab belgilangan. Hovli puli (uy-joy solig‘i) esa daromad solig‘iga o‘xshash bo‘lgan. Ular soliq va daxyakni davlatga, daxyakning bir qismini esa o‘z vaqtida idoralariga to‘laganlar. Soliq yig‘uvchilar uchun soliqlarni yig‘ish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Muhammad Rahimxon xalqning noroziligi yana kuchayib, qo‘zg‘olon ko‘tarilishidan qo‘rqib soliq solish tartibini o‘zgartirishga kirishdi. Uning davrida xiroj deb atalgan va natura bilan olinadigan eski soliq (mahsulot solig‘i) tizimi bekor qilindi. Buning o‘rniga soluq deb atalgan pul solig‘i joriy etildi. Savdo ishlarida belgilangan zakot yig‘imi, tarozi puli va boshqa soliqlardan tashqari, Xiva xonligining savdo markazlari (Urganch, Xonqa, Xiva, Gurlan va boshqalar)dagi savdogarlar har yili xonga “boy puli”

solig‘ini to‘laganlar. Xon bu soliqni savdogarlarga majburiy tarzda yuklagan. Savdo shaharlarida har bir shaxs xon xazinasiga ma’lum miqdorda pul kiritishi kerak edi. Lekin olingan bu pullar egalariga qaytarib berilmas edi. Belgilangan pul shahar aholisi o‘rtasida taqsimlanib undirilar edi. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilardan chorva soniga qarab zakot 1/4 miqdorida undirib olingan. Bundan tashqari Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan yerlardan turlicha soliqlar olingan. Shunday qilib, Xiva xonligida 25 turdagi doimiy va favqulodda yig‘imlar, majburiyatlar va soliqlar mavjud bo‘lgan. Rus sayyohi va elchisi N. Muravyov Muhammad Rahimxon “talonchilikni yo‘qotdi, soliq undirish ishida tartib o‘rnatib daromadni ko‘paytirdi” deb yozadi. Biroq bu tartiblar o‘rnatilishi bilan ham talonchilik butunlay yo‘qolib ketmagan. ketmagan. Rus amaldori va olimi L. Kun arxivida yozilishicha, xonlikdagi bojxona xizmatchilari ichida — saroyda, Oqmasjid, Shohabbos, Qalandarxona, Qipchoq, Ko‘hna Urganch, Shark Xiloli, Gazavat, Pishkinik, Qoraqul va Beshariqda joylashgan [4]. Xon tomonidan har bir tuman hokimlarining soliq, zakotlarini yig‘ib oladigan amaldorlar, uning hisobini olib boradigan devonlar belgilangan. XIX asrning birinchi choragida qoraqalpoqlardan soliq va zakot faqat natural yo‘l bilan olingan. Muhammad Rahimxon davrida yangi soliq tizimi joriy qilinganidan boshlab, asosan pul solig‘i “soluq” olinadigan bo‘ldi. Lekin daryo tarmoqlari, kanallar, ko‘llar atrofida tarqalgan holda yashayotgan ayrim o‘troqlashgan xalq dehqonlaridan, jumladan qoraqalpoq dehqonlaridan soliq to‘plash juda qiyin bo‘lgan. Shuning uchun bunday yarim o‘troqlashgan o‘rda, ko‘chmanchi qoraqalpoqlardan olinadigan soliq miqdori belgilab qo‘yilgan. U haqida L. Kun “Muhammad Rahimxon butun nizolarni yo‘qotish maqsadida qoraqalpoq oqsoqollari bilan shunday qarorga kelgan: Qoraqalpoqlar qancha yer ishlatilishiga qaramasdan, har yili xonga 20 ming kichik tilla to‘laydilar; Ular xonga 2 ming kishi yuboradilar; Umumiy miqdorlarga har yili 6 ming odam beradilar” [5], – deb yozgan edi.

Soliq miqdorining bunday belgilanishi Xorazmda “soluq kesmi” deb atalgan. Xiva davlat arxivi hujjatlarining to‘plamida qoraqalpoqlardan olingan soliqlar yig‘ilgan daftarlar soni XIX asrning 60-yillarida 12 taga yetgan. Ulardan 3 tasi bizgacha yetib kelgan. Lekin XIX asrning birinchi choragidan 1860-yilgacha bo‘lgan davrda turkman va qoraqalpoqlarning soliq va zakotlari e’lon qilingan hujjatlarning asosiy qismi 1855–1859-yillarda yo‘qolgan.

Soliq joriy etilishining ma’lum tartiblari bo‘lgan. A.L. Kun arxivida soliqning g‘o‘zalar ochilgan vaqtdan boshlab olinishi va boshqa tartiblari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Jumladan, soliq olishdan oldin u xaqda soliq to`lovchilarga maxsus odam orqali xabar qilingan, u chopar deyilardi. Soliq to`lash vaqtini bildirgani uchun xar bir kishi boshidan bir tanga olar edi. Soliq to`lovchi soliq yig`uvchiga 1,5-2 tanga berishga majbur edi. Agar soliq 8 oy ichida uzilmasa u ikki barobar ko`payar edi. Agar soliq to`lovchi soliqning noto`g`ri xisoblanishi xaqida yuqoei idoralarga ariza yozib murojat qilsa, devonga 9 tanga to`lamog`i darkor edi. To`lay olmay qarz olgan boqimandalarni yig`ib olayotganda xar bir tillasi xisobidan bir tanga qo`shib olgan. Odatda har yili oktiyabr ( aqrab ) oyidan boshlab to`rt oygacha soliqning yarmini yana to`rt oydan so`ng qolgan yarmini, yani kelasi yil may (javza) oyigacha yig`ib olish tartibiga amal qilingan.

Xulosa. Muhammad Rahimxon I (1806–1825) Xorazm tarixida Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan hukmdorlardan biri hisoblanadi. U taxtga kelgan davrda Xiva xonligida siyosiy parokandalik va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi kuzatilgan edi. Muhammad Rahimxon I qat’iy siyosat yuritib, ichki nizolarni bartaraf etishga, qabila va urug‘lar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni kamaytirishga hamda davlat boshqaruvini markazlashtirishga harakat qildi. Uning davrida soliq tizimi tartibga solinib, davlat xazinasi mustahkamlandi. Harbiy sohada ham islohotlar amalga oshirilib, xonlikning ichki va tashqi xavfsizligi

kuchaytirildi. Shu bilan birga, u markaziy hokimiyatni kuchaytirish orqali xonlikning siyosiy barqarorligini ta’minlashga erishdi. Umuman olganda, Muhammad Rahimxon I ning siyosati Xorazm xonligida davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, taxt hokimiyatini kuchaytirish va nisbatan barqaror siyosiy muhit yaratish bilan tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munis, Ogahiy. *Firdavs ul-iqbol*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Abdullayev H. *Xiva xonligi tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
3. Allohverdiyev I. *Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi*. Toshkent: Fan, 2001.
4. Mirzaev B. *O‘zbekiston tarixi (III jild)*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
5. Sodiqov S. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. Toshkent: Adolat, 1997.
6. Mo‘minov I. *Xorazm tarixi va madaniyati*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
7. Karimov I. *Mustaqillik davri O‘zbekiston tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
8. Matnli ilmiy maqola: “Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot”, ilmiy-research maqolasi, 2024.
9. Internet manba: “Xiva xonligi tarixiga oid manbalar va adabiyotlar”, ilmiy taqdimot materiallari.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
https://cyberleninka.ru/viewer_images/19036915/f/1.png